BOSHLANG‘ICH SINFLARDA UY VAZIFASI DOIRASIDA BERILADIGAN BADIIY ASARLARNI SO‘RASH USULLARI

Qoraboyev H.K.
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi
Shodiyeva J.X.
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: uyga vazifa, baholash, matn mazmuni, o‘qish texnikasi, antisipasiya, sintagmatik o‘qish, hamkorlikda ishlash.

Ключевые слова: домашнее задание, оценка, содержание текста, техника чтения, антиципация, синтагматическое чтение, совместная работа.

Key words: homework, assessment, text content, reading technique, anticipation, syntagmatic reading, collaborative work.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslari tarkibida uyga vazifa berish va uy vazifasini so‘rash bosqichlari ajratiladi. Avvalgi darsda uyga vazifa berilsa, navbatdagi darsda uy vazifasining qay darajada bajarilganligi so‘rab, tekshiriladi va zarur bo‘lganda baholanadi. Gap shundaki, “O‘qish savodxonligi” darsliklarida kuzatilganidek, ba’zan darslikning “Uy vazifasini so‘rash” ruknida nazoratga tortilgan topshiriqlar “Uyga vazifa berish” ruknida belgilanganidan ko‘payib ketadi.

Bizningcha, bu yerda aniqlik ta’minlanishi kerak. Chunki, birinchidan, o‘quvchi uyga berilgan vazifani bajarish jarayonida o‘qituvchi nimani qay tarzda so‘rashini o‘ylaydi, shu nuqtai nazardan tayyorgarlik ko‘radi, ikkinchidan, muallimning o‘zi bergan vazifani nazorat qilishgagina ma’naviy haqli bo‘ladi. To‘g‘ri, badiiy asarlar bo‘yicha uy vazifasini so‘rash jarayonida ham o‘qituvchi o‘quvchini o‘ylashga undovchi, shaxsiy munosabat bildirishni talab qiluvchi qo‘shimcha savollar qo‘llaydi, tarbiyalanuvchilar o‘zlaridagi tashabbuskorlik, onglilik, topqirlik kabi sifatlarni ishga soladilar. Lekin

bunday savollar berishdan avval javob berayotgan o‘quvchining uyda ko‘rgan tayyorgarlik darajasiga baho berib, uni ruhlantirishi kerak.

Lekin, tan olish lozimki, hamisha ham o‘quvchi uy vazifasi sifatida oldiga qo‘yilgan masalani (u muammoli bo‘lsa) ijobiy hal qilavermaydi. Bu uning nafaqat imkoniyatlari, balki mazkur topshiriqqa bo‘lgan qiziqishi bilan ham bog‘liq. Agar odamda bilishga ehtiyoj bo‘lsa, u hamma narsani qiziqish bilan o‘rganadi. Gap bilim olishning ichki ehtiyojga aylanishida. Ehtiyoj insonda biror ishga qobiliyat shakllanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Ta’limda bilishga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otish o‘qituvchining vazifalaridan biridir. Ma’lumki, ta’lim jarayonida o‘quvchining ijodiy ishlashga, bilishga bo‘lgan ehtiyoji uning oldiga nisbatan murakkab savollar qo‘yilganda paydo bo‘ladi. Qolaversa, uyga berilgan topshiriq o‘quvchini qiziqtirib qolganda, uni bajarishdan moddiy yoki ma’naviy manfaatdorlik anglashilgandagina sidqidildan, va albatta, ijobiy hal etiladi. Chunki har qanday manfaatdorlik odamni izlantiradi, hodisaning mohiyatini tushunishga va tushuntirishga undaydi. Bu insonga xos bo‘lgan tabiiy xususiyat.

O‘quvchilardan badiiy asarlar bo‘yicha uy vazifasini so‘rash jarayonida nafaqat ularning olgan bilimlarini aniqlash, balki bu bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va tizimga solish bo‘yicha keyingi ishlar ham tekshirilishi kerak. Bu bilan o‘quvchilarning kritik (mantiqiy, tahliliy, tanqidiy) ishlashlari va o‘qiganlari asosida kreativ (ijodiy) mulohaza yuritishlariga keng imkoniyat yaratiladi. Boshlang‘ich sinflarda bunday yondashuv o‘quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlari doirasida amalga oshirilishi lozim.

Tabiiyki, navbatdagi darsda uy vazifasining qanday bajarilganligi tekshirilar ekan, masalaning jiddiyligi shundaki, uy vazifasi nima ediyu, keyingi darsda nimasi qay tarzda tekshiriladi, degan muammo mavjud. Zero, o‘quv jarayonining birligi sanalmish dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning nisbatan birgalikdagi faoliyatining alohida tuzilish elementlarini ifoda etuvchi mustaqil bosqichlardan tashkil topadiki, ularning har biri o‘z maqsad va vazifalariga ega.

“Методика преподавания русского языка в школе” nomli darslikda quyidagi mazmunda ogohlantirish beriladi: “Agar mavzu murakkab va u bilan o‘quvchilar ilk bor tanishayotgan bo‘lsalar, darsda mustaqil ish mo‘ljallanayotgan bo‘lsa, uy vazifasi tekshirilmaydi”. Darslikda shu narsa ham eslatiladiki, dam olish kunidan, ayniqsa, bayramdan oldin uyga vazifa berilmaydi.

Ushbu darslikda ta’kidlanishicha, “Uy vazifasining bajarilishini nazorat qilishda o‘yinlardan, ayniqsa, I–II sinflarda foydalanish o‘rinlidir. Bunga 15 daqiqagacha vaqt ajratiladi”.

Uy vazifasi matnni o‘qish texnikasi bo‘lsa (1-sinfda), keyingi darsning uy vazifasini so‘rash bosqichida matn avvali darsda sustroq o‘qigan 3 - 4 o‘quvchiga o‘qitiladi. Lekin keyingi darslarda o‘qish texnikasida nuqsonlari bor bolalardan 1- 2 tasi nazorat uchun o‘qitib turiladi, shu yo‘l bilan sinf bolalarining hammasi o‘qituvchining e’tiborida bo‘ladi. O‘quvchi matnni uyda o‘qimasa, darsda hammaning ovoz chiqarib o‘qishini individual tarzda tashkil etishning imkoniyati yo‘q. Bu o‘rinda ba’zan sinf o‘quvchilarining matnni jo‘rlikda o‘qishlarini uyushtirish ta’limiy samarani ta’minlash uchun xizmat qiladi. Shu tariqa uyga vazifa berilgan darsda bajarilgan o‘quv ishlari bilan navbatdagi nazorat bosqisining mutanosibligiga erishiladi.

Uyga sintagmatik o‘qishni (dastlab berilgan so‘z birikmalarini so‘zlar orasida to‘xtam qilmay o‘qish, keyinroq gaplardagi ajratilgan so‘zlar juftini o‘zaro to‘xtamsiz o‘qishni) mashq qilish topshirilsa, keyingi darsda so‘zlar juftini, ayrim gaplarni, ta’limning rivojlanib borayotgan bosqichlarida matnni sintagmatik o‘qish yuzasidan hosil bo‘layotgan bilim, ko‘nikma va malaka darajasi nazorat qilinadi. Bu masala juda jiddiy qarash talab qilinadi, chunki matnni ravon o‘qish ham, o‘qish sur’atini oshirish ham, matn mazmunini kutilganidek tushunish ham ana shu sintakmatik o‘qishga bog‘liq. O‘quvchi gaplardagi har bir so‘zni ayrim-ayrim o‘qisa, har bir so‘zdan keyin kichik to‘xtam qilishga majbur bo‘ladi. Bunday o‘qilgan matn mazmunini tushunish ham dushvor bo‘ladi. O‘qish ravonligi, o‘rtacha tezligi haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun sintagmatik o‘qish har darsda o‘qituvchining e’tiborida bo‘lishi, o‘quvchilarga qo‘yiladigan doimiy talabga aylanishi darkor.

Ba’zan uy vazifasi sifatida matndagi 3-4 ta gapdan bir so‘zli, ikki so‘zli va uch so‘zli sintagmalarni jadvalga solish topshirig‘i berilishi mumkin.

Jadvaldan namuna:

bir so‘z yolg‘iz aytiladi	ikki so‘z orasida to‘xtamsiz aytiladi	uch so‘z orasida to‘xtamsiz aytiladi

O‘quvchi o‘zi tuzgan jadvalning to‘g‘riligini gaplarni aytib ko‘rib dalillashi kerak, chunki so‘zlashuv nutqi deyarli hamma vaqt sintagmatik bo‘ladi.

Uy vazifasi matnni o‘qish tezligini oshirish bo‘lsa, navbatdagi darsda o‘qituvchi sekund ko‘rsatkichi bo‘lgan soatdan foydalanib, 3-4 o‘quvchining o‘qish tezligini tekshiradi. Bunda avvalgi darsda so‘zlar miqdori ma’lum qilinib, o‘qish mashq qilingan matndan foydalaniladi. Bu narsa uyga vazifa berish bilan uy vazifasini so‘rash mutanosibligini ta’minlaydi. O‘quvchi tezroq o‘qishni mashq qilib kelgan matnni qayta-qayta mutolaa qilib kelgan, o‘qituvchidan maqtov eshitishga ishonch bilan javob berishga otlangan bo‘ladi.

Albatta, bunday topshiriq berishni mo‘ljallagan va namuna ko‘rsatganda sintagmatik o‘qish kerakligini ham eslatgan bo‘lishi kerak.

Uy vazifasi matnni ravon, ifodali o‘qish bo‘lsa, matn shu talabga javob beradigan qilib tanlanadi. Ilmiy maqola tipidagi matn deyarli ifodasiz, diktorlarning axborot berishdagi nutqidan ibrat olgan holda o‘qiladi. Nasriy asardan parchada yozuvchinig so‘zlari, ertakda ertak so‘zlayotgan odamning nutqi o‘zgacha ohangda, asar qahramonlarining so‘zlari ularning tavsifiga monand ohangda, so‘zlanayotgan nutqning ruhiyatini aks ettirgan holda o‘qiladi. Qaysi matn (nasriy asardan parcha, ertak, she’r) uyga vazifa berilgan darsda ifodali o‘qilgan bo‘lsa. Uy vazifasini so‘rash darsida ham shu matnni o‘qib berish talab etiladi. O‘quvchilarning ifodali o‘qishdagi yutuq va kamchiliklari ko‘rsatiladi. Bu narsa ifodali o‘qishnirng nazorati keyingi darslarda ham oz-ozdan davom etishini anglatib, bunday o‘qish kun tartibidan tushmasligini qat’iylashtiradi.

Ilmiy maqola tipidagi matnlarni o‘qishda ifodalilikdan ko‘ra ko‘proq ravonli o‘qish haqida o‘ylanadi.

Uyga she’riy asarni yod olish topshirilgan bo‘lsa, darsda uni ifodali o‘qish mashq qilinishi kerak. Keyingi darsda she’r uch-to‘rt o‘quvchidan so‘raladi. Eslatish lozimki, dasturda va darslikda yod olish talab qilingan barcha she’riy asarlarni o‘quvchilarning hammasidan birday talab qilish ham unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu o‘rinda birinchi navbatda uning mazmuni o‘quvchilar tomonidan yaxshilab tushunib olinishiga erishish talab etiladi. Asarni yod olishdan oldin u darsda sharhlab o‘rganilishi, she’r matni o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi shart. Asarning yoddan, ifodali o‘qilishi darajasi uning qanchalik anglashilganligini ko‘rsatadi. Nihoyat, uy vazifasini so‘rash dars bosqichida she’rni ifodali qilib yoddan aytib bera oladigan o‘quvchilar tinglanishi zarur. She’rni ifodali o‘qiy olmayligan bolalardan darsdan keyin vaqt ajratib, o‘quvchilarning xohish-istak va imkoniyatlarini inobatga olib so‘rash maqsadga muvofiqdir.

Yod olish uchun beriladigan uy vazifalarining nomi va soni o‘qish fani dasturida va darsliklarda aniq ko‘rsatilgan. Pedagogika ilmida bir darsda yod olish uchun beriladigan uy vazifalari 1-sinfda to‘rtdan sakkiz qatorgacha; 2-sinfda sakkizdan o‘ntagacha; 3 – 4-sinflarda 16 misra atrofida bo‘lishi tavsiya etilgan.

Uy vazifasi matn mazmunini chuqurroq tushunish bo‘lsa, nazorat usuli o‘quvchilarga oldindan (uyga vazifa berilgan darsda) ma’lum qilingan bo‘ladi. O‘quvchilarning matn mazmunini qanchalik tushunganligi turli yo‘llar bilan aniqlanadi. Ayni paytda savollarga javob olish usuli ko‘proq qo‘llanadi. Ba’zan

matn mazmuni yuzasidan savollar tuzish o‘quvchilarning o‘zlariga topshiriladi. Savollar o‘quvchilarni ba’zan matn mazmunini qisqacha gapirib berishga – qayta hikoyalashga yaqinlashtirish maqsadini ham ko‘zda tutishi kerak. “Matn nima haqda ekan?” va h.k. Bu usul metodika ilmida antisipasiya deb yuritiladi.

Matndan notanish so‘zlarni daftarga yozib chiqish uyga vazifa qilib topshirilgan bo‘lsa, nazorat chog‘ida, birinchi navbatda, o‘quvchining vazifani sidqidildan bajarganini aniqlash maqsad qilib olinadi. Bolalar vazifani bajargan degan gap bo‘lishi uchun 5-10 ta so‘zni taxminan yozib qo‘ygan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchining daftarini ko‘zdan kechirar ekan, matndan o‘zi o‘quvchilar ma’nosini bilmasalar kerak, deb ajratgan so‘zlarini bolaga aytib, uning ma’nosini bilish-bilmasligini so‘raydi. Bola bilmayman, desa, uni uyaltirish, keyingi gal bunday qilmaslik mazmunida nasihat qiladi.

O‘qituvchi bolalar haqiqatda ma’nosini bilmagan so‘zlarning qisqa izohini beradi, lozim topsa, xattaxtaga yozib qo‘yadi.

Matn mazmunini bir necha gap bilan gapirib berish topshirig‘i bolaning matn mazmunini tushungan-tushunmaganligini aniqlashning eng ishonchi usullaridan biri hisoblanadi. Bunda o‘quvchi matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qisqa gapirib berishi kerak. Matnning gaplarini yod olib gapirib berish onglilikka ishora qilmaydi.

Uy vazifasi savol va topshiriqlar bo‘lsa, savollarni ham, topshiriqlarni ham matnga yaqinlik darajasi, ijodiy yoki ijodiy emasligi (mexanik bajarilishini) jihatidan o‘rganib chiqish lozim.

Savollar matnga doir tuzilgan bo‘lsa, ularning ijodiy yoki ijodiy emasligi, o‘quvchilardan munosabat bildirish talab etilishi yoki talab etilmasligini ko‘rib chiqish zarur. Darsliklarda berilgan savollarning ma’lum qismi matndagi gaplar bilan javob qaytarishga moslab tuzilgan, ya’ni ijodiy emas. Ushbu savollar matndagi gaplardan foydalanib javob qaytarishdan iborat jo‘n savollardir. 1-sinfda ular o‘zini oqlashi mumkin. Lekin keyingi sinflarda bunday savollar iloji boricha kam bo‘lishi, ijodiy savollar ko‘paytirilishi kerak. Darsliklarda bunday savollar juda kam.

Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasida eslatilganidek, “Boshlang‘ich maktabning 3–4 -sinflarida o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida asar matni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning soni to‘rttadan oshmasligi kerakligi ma’lum”.

Savollar ham, topshiriqlar ham har xil bo‘ladi. Bir turkum savol va topshiriqlar matn doirasida tuzilgan bo‘lsa, boshqa yana bir turkumi matn mazmunidan chetga chiqishni taqozo etadi. Har ikkala holatda ham ushbu materiallar mavzuga moslagan tarzda shakllantiriladi.

“O‘qish savodxonligi” darsligida matnga doir savollar “Savollarga javob bering” ruknida keltirilgan bo‘lsa, topshiriqlar “Topshiriqlarni bajaring” ruknida keltirilgan. Topshiriqlarning bir qismi o‘rganilgan matn mazmuni bilan bog‘liq bo‘lsa, aksariyat qismi matn mazmunidan chetga chiqadi. Masalan, 3-sinf darsligining 35-betidagi “Vada” mavzusida: matn mazmuni bilan bog‘liq savollar va matn bo‘yicha izohli lugat ustida ishlash berilgan. Mavzu bo‘yicha mustaqil bajariladigan topshiriqlar berilgan.

Darslikda savol va topshiriqlar uy vazifasi sifatida ko‘rsatilmagan, shuning uchun ularni uyga vazifa qilib berish yoki bermaslik o‘qituvchining ixtiyorida.

Adabiyotlar:

1. Методика преподавания русского языка в школе: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Т. Баранов, Н. А. Ипполитова, Т. А. Ладыженская, М. Р. Львов; Под ред. М. Т. Баранова. - М.: Издательский центр «Академия», 2001.– с. 121.

2. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – С. 263..

3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2017. – 255-b.

4. O‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]/ 3-sinf uchun darslik. Yangi nashr. U.B.Aydarova (va boshq.). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023. – 35 b

5. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta ’lim fakulteti talabalari uchun darslik): |K. Qosimova|, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: “NOSHIR”, - 2009. – 99-b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy asarlar yuzasidan uyga vazifalarni tashkil etishning mazmuni, shakllari haqida ma’lumot berilgan. Matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so‘rash usullari va ushbu jarayonga yondoshuvlarning metodik xususiyatlari asoslangan. Matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so‘rash usullari haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о содержании и формах выполнения домашних заданий на уроках читательской грамотности в начальной школе. Обосновываются способы запроса домашнего задания, данные в содержании текста, и методические особенности подходов к этому процессу. В содержании текста приведены практические рекомендации о том, как задавать домашнее задание.

SUMMARY

This article provides information on the content and forms of homework assignments in elementary school reading literacy classes. Methods of asking for homework given within the content of the text and methodical features of approaches to this process are based. There are practical recommendations on how to ask for homework given within the content of the text.